

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

S. N. BERDIKULOV

QONUN USTUVORLIGI VA QONUNGA
ITOATKORLIK – DEMOKRATIK
TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT – 2017

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik kengashida ma’qullangan*

Taqrizchilar:

G. V. Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot akademiyasining
Toshkent filiali kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori,
professor **N. X. Hakimov**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi demokratik jamiyat qurish
nazariyasi va amaliyoti kafedrasida boshlig‘i,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent **R. U. Ernazarov**

Berdikulov S. N.

B-55 **«Qonun ustuvorligi va qonunga itoatkorlik – demokratik
taraqqiyot kafolati»** o‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir falsafa fanlari
doktori, professor SH. O. Mamadaliyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi
IIV Akademiya, 2017. – 39 b.

Mazkur qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qonun ustuvorligining ahamiyati, taraqqiyotning «o‘zbek modeli»da qonun ustuvorligi prinsipining ifodalanishi, mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining qonun ustuvorligini ta’minlashdagi o‘rni, shuningdek 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish masalalari yoritilgan.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar hamda IIV Akademiyasida ta’lim olayotgan tinglovchi-kursantlar uchun mo‘ljallangan.

KBK 67.99(50‘)

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘z oldiga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo‘ydi. Chunonchi, demokratik davlatda inson huquqlari, erki, sha’ni va qadr-qimmatini eng oliy qadriyat hisoblanib, qonun ustuvorlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir»¹.

Shu ma’noda, qonun ustuvorligi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimiz konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilab qo‘yildi. Asosiy qonunimizning 15-moddasida ham «O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar» deyilgan. Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan ushbu qoidani mamlakatimizda to‘laqonli amalga oshishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.* – Т., 1996. – Б. 321.

marosimdagi ma'ruzasida bu borada shunday degan edi: «*Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir*»¹.

Qonun ustuvorligi prinsipini o'rganish demokratik jamiyat qurish jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, demokratik jamiyatda barcha fuqarolar qonunga amal qiladi, qonunga itoatkorlik bosh mezon sifatida qabul qilinadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada ham qonun ustuvorligining demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash xalqimizning turmush darajasini oshirish, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning asosiy kafolatidir.

¹ *Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.*

1-§. Qonun ustuvorligi va qonunga itoatkorlik tushunchasi

Demokratik jamiyat qurish jarayonida qonun ustuvorligi, qonunga itoatkorlik masalalari barchani qiziqtirib kelgan. Qayerda qonunlar ustuvor ahamiyat kasb etsa, fuqarolar qonunga itoatkor munosabatda bo'lishsa, o'sha yerda shaxs huquq va erkinliklari ta'minlanadi, jamiyat taraqqiyotga yuz tutadi.

Buyuk ajdodimiz sohibqiron Amir Temur «saltanatim martabasini to'ra va tuzuklar (qonunlar – *muallif*) asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi»¹, degani ham davlatni qonunlarsiz boshqarib bo'lmasligidan dalolat beradi. Avestoning ikkinchi kitobi – «Yasna»ning 7-bobida yozilishicha, Axuramazda yuborgan qonun-qoida, tartibot, axloqiy o'g'itlarga amal qilsalar ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qiladi². Bundan ko'rinadiki, ajdodlarimiz qadimdan turli nopok ishlardan, firibgarlik, tovlamachilik, o'g'irlik, poraxo'rlik kabi jinoyatlardan, birovning haqiga xiyonat qilishdan o'zlarini tiyishgan. Yunon mutafakkiri Arastu jamiyatda huquqning o'rniga alohida urg'u bergan. Uning fikricha, qonunlar huquqlardan tashkil topishi zarur. Bu – davlatning demokratligini ko'rsatadigan xususiyat. Arastuning majburiy kuchga ega qonunlar bo'lmasa, jamiyatda fuqarolarning tengsizligi, adolatsizliklar kelib chiqishi to'g'risidagi fikrlari e'tiborga molik³.

Darhaqiqat, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar qonunlar orqali tartibga solinadi., adolat qaror topishi uchun qonunga murojaat qilinadi. Qonun orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan adolatsizliklar barham topadi. Qolaversa, turli jinoyatchiliklarning oldini olinadi, qonunlarni chetlab o'tish, uni buzish kabi huquq-buzarliklarga chek qo'yiladi. Bu esa jamiyatda qonunga itoatkorlikning obyektiv zarurati hisoblanadi. Qonunning kuchi, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati hayotda uning halol, haqiqiy, odilona tatbiq etilishidadir. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari o'zlarining vakolatlari va burchlariga mas'uliyat bilan odilona yondashsa, Vatan, davlat manfaati va taqdirini o'zlari uchun oliy maqsad deb hisoblashsa, qonunlarni turmushga adolatli qo'llasalar, jamiyat ravnaq topadi. Qonun

¹ Temur tuzuklari / Taхрир хайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ. – Т., 2012. – Б. 88.

² Нурматова М. Шарқ ахлоқий тафаккур тараққиёти босқичлари. – Т., 2008. – Б. 9.

³ Мухамедов Ў. Ҳ. Конституция ва қонун устуворлиги. – Т., 2003. – Б. 10.

barchaning irodasi bilan qabul qilingan hujjat va hattoki, davlat boshlig'i undan yuqori tura olmaydi¹. Bundan nafaqat davlat va jamiyat, balki xalq ham katta naf ko'radi.

Abu Nasr Forobiy asarlarida odil va adolatli jamiyatning nazariy asoslari mufassal yoritilgan. Shuningdek, demokratik jamiyat haqidagi g'oyalar o'rta asr ijtimoiy-falsafiy tarixida muhim o'rin egallagan mutafakkir va davlat arbobi Nizomulmulkning «Siyosatnoma» (XI asr) asarida ham uchraydi. Unda adolat, insof, axloq va qonun ijtimoiy-siyosiy kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. Nizomulmulk «ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak. Biror ishni maslahatsiz amalga oshirish fikrning zaifligidan dalolat beradi, bundaylarni o'zbiarmon deydilar. Mashvarat va kengashsiz amalga oshirilgan ishning natijasi yaxshi bo'lmaydi»², degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha:

- *davlat tizimiga rahbarlarni jiddiy tekshiruvlardan o'tkazib, ularni shaxsiy va axloqiy xususiyatlarini o'rganish asosida tanlash lozim;*
- *rahbarlar qonunga itoatkor bo'lishlari va ularning ijrosini ta'minlashda axloqqa suyanishlari lozim;*
- *qarorlar qabul qilishda, qonunchilikni yaratishda ko'pchilikning fikriga, xohish va irodasiga suyanish kerak.*

Bu haqda Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» asarida «davlatning odatu qonuniga muvofiq ish yurgizdilar, zulm qo'lini kalta qilib, adolat panohida mazlumlarga joy berdilar, toki to'g'rilik mevalarini rostlik daraxtidan tersinlar»³ fikrining asosida qonun ustuvorligi masalasi e'tirof etilgan.

Qonun ustuvorligi deganda, qabul qilingan qonunlarning barcha tomonidan hurmat qilinishi, ijrosi ta'minlanishi, ularga qat'iy amal qilish tushuniladi. Ayniqsa, huquq hukmronligi va qonun ustuvorligi huquqiy demokratik davlatga xos bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va kafolatlashga xizmat qiladi.

Qonunlarga itoat etish, rioya qilish ularning ijrosini va eng muhimi, jamiyatda adolatni ta'minlaydi. Aksincha, adolatsizlik ildiz otgan joyda taraqqiyot va barqarorlikka putur yetadi. Qonunga itoatkorlik jamiyat a'zolarining yuksak siyosiy-huquqiy madaniyat, ma'naviyat, ma'rifatliligidan kelib chiqadi. Ya'ni uning negizini qonunning maqsad va vazifalari,

¹ Руссо Ж. Ж. Трактаты. – М., 1969. – С. 177.

² Низомулмулк. Сиёсатнома. – Т., 1997. – Б. 98.

³ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарофномаи шоҳий). Иккинчи китоб. – Т., 2000. – Б. 106.

mohiyatini ongli ravishda tushunib olish, unga o'z ixtiyori bilan rioya qilish tashkil etadi. «Qonun ustuvorligi deganda, barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarning boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustun bo'lishi hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning ularga qat'iy rioya etishi tushuniladi. Ma'lumki, jamiyatda qonun ustuvorligining ta'minlanishi, avvalo, shu yurtda tinchlik va xotirjamlikni, jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida doimiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi»¹.

Demokratik jamiyat qurish jarayonida qonun ustuvorligiga alohida urg'u beriladi. Chunki, qonun ustuvorligi adolat mezonini hisoblanib, fuqarolar millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, urf-odati, an'anasi, qadriyatlari, diniy e'tiqodi, jinsidan qat'i nazar, bir xil huquqqa ega bo'ladi. Natijada, mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-ma'naviy hayotida barqarorlik ta'minlanadi. Qonunlarga befarq munosabat shakllangan, ular ijro etilmaydigan yoki rasmiyatchilikka xizmat qiladigan mamlakatda talon-torojlik, tengsizlik, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi salbiy holatlar yuzaga keladi. Shu bois, qonun ustuvorligi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, «jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol qatnashayotgan insonlarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim»². Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda vujudga keladigan muammolar oddiy insonlardan tortib, to mansabdor shaxslargacha qonunni chetlab o'z iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlar qilish jarayonini vujudga keltiradi. Bu salbiy jarayonlarning oldi olinmasa, juda noxush holatlar kelib chiqishi mumkin. Shu ma'noda, qonun ustuvorligi har qanday davlat va jamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Qonunda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o'zining ifodasini topadi. Demokratik institutlar, inson huquqi va erkinliklari qonun vositasi bilan joriy etiladi.

Hozirgi paytda qonun ustuvorligi masalalari bo'yicha nazariy tasavvurlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

¹ Қобилов Ш. Р. Қонунга хурмат ва итоаткорлик – тараққиёт ва хавфсизлик гарови. – Т., 2016. – Б. 122-123.

² Мирзиёев Ш. М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // URL – <http://uzlidep.uz/uzc/news/demokratik-islokhotlarni-izchil-davom-ettirish-halkimiz-uchun-tinch-va-osoyishta-munosib-khayot>

1) qonun ustuvorligi va u bilan bog'liq nazariy-amaliy masalalarning mohiyatini tushunishda yanada yuqori natijalarga erishish ehtiyojining mavjudligi;

2) qonun ustuvorligi muammosini qonunning oliy yuridik kuchi, huquqiy hujjatlarning qonunga mos kelishi va qonunning barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiyligi nuqtai nazaridan hal etish uchun yetarli darajada emasligi.

«Qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan qonunning roli ijro etuvchi hokimiyatning o'zboshimchalik bilan qonunga asoslanmagan qarorlarini chiqarishga qarshi uning huquq va erkinliklarini cheklashi bilan belgilanadi»¹. Zero, jamoatchilik nazoratining asosiy vazifasi ham qonunning jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan. Ma'lumki, jamoatchilik nazoratini olib boruvchi subyektlar ijroiya hokimiyati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Qonun ustuvorligini amalga oshirishning zaruriy mexanizmlaridan biri – bu «qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir»². Chinakam demokratiya qonunlarning ustuvorligi, huquq va erkinliklarning kengligi, ijtimoiy kafolatlarning kuchliligi orqali ta'minlanadi. Har qanday davlat o'z xalqi manfaatlarini, fuqarolarining ornomusi va qadr-qimmatini, hayoti va erkinligini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lmog'i darkor. Shuningdek, qonun ustuvorligining qaror topishi quyidagi omillarga bog'liq:

– mamlakatda Konstitutsiya va qonunlar haqiqiy hukmron bo'lib, ularni faqat davlatning oliy vakillik organi qabul qila olishi va davlat rahbari tasdiqlashi, o'zida xalq xohish-irodasini ifoda etishi;

– Konstitutsiya eng oliy o'rin egallashi va uning ustunligi hech qanday huquq yoki axloqiy qoidalar bilan cheklanmasligi;

– qonunlar respublika hayotining muhim masalalari yuzasidangina qabul qilinishi;

– qonunlarda inson manfaatlari, xalqaro huquq normalari ustuvorligining aks ettirilishi;

– Konstitutsiya va qabul qilinajak har qanday qonunning mazmun-mohiyatida ijtimoiy adolat g'oyalarining bo'lishi;

– qonunlar to'g'ridan-to'g'ri, bevosita amalga oshiriladigan hujjatlar bo'lishi.

¹ Доктрины Правового Государства и Верховенства Права в современном мире. – М., 2013. – С. 270.

² Мурзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi haqida gap ketganda, bu masalaga alohida to'xtalishimizning sababi bor, chunki Konstitutsiya qonun hukmron bo'lgan davlatning ajralmas qismidir. Bu o'rinda Konstitutsiya va qonunlarning demokratik jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish, hokimiyatlarning taqsimlanishi va ularning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'zaro hamkorligi qirralarini yoritib berish, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining qonunga itoatkorlikni shakllantirishdagi rolini, shuningdek aholi huquqiy madaniyatini qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omili sifatidagi o'rini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunonchi, Asosiy qonunimizning 92-moddasida O'zbekiston Prezidenti Oliy Majlis yig'ilishida qabul qilgan qasamyodga binoan, Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy rioya etishi belgilangan. Uning 48-moddasida esa barcha fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga majbur ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan. Binobarin, Prezidentning davlat boshlig'i sifatida chiqargan farmon va farmoyishlari qonunga asosan hamda uning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi (89-, 94-, 98-m.). Mahalliy hokimiyat organlari qonunlarni, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar (101-m.). Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar (112-m.). Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan esa prokuror nazorati amalga oshiriladi (118-m.). O'zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatda to'la qonun ustuvorligini ta'minlash ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida qonun ustuvorligining tarkibiy qismlari bo'lmish jamiyat va huquq o'rtasidagi munosabat, insonning huquqqa munosabati, huquqiy ong darajasi, huquqiy himoyalaniish va huquqdan foydalanish darajalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Insoniyat uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tar ekan, bu yo'lda olamshumul muvaffaqiyatlar bilan birga, ijtimoiy hayotda muammolar, xatoliklar uchrab turdi. Ko'pgina holatlarda ana shunday muammolarning asosiy sababi jamiyat tomonidan huquq talablari to'la inkor etilganligidir. Bu esa qonunlarning «ishlamasligi»ga, qog'ozda qolib ketishiga sabab bo'lgan. Bilamizki, qonunlar o'z-o'zidan ishlab ketavermaydi va uni harakatlantiruvchi mexanizmlar mavjud. Mamlakat fuqarolari qabul qilingan qonunlarni ongli ravishda tushunishlari, ya'ni ularning ham huquqiy ongi va huquqiy madaniyati rivojlangan bo'lishi lozim. Buning uchun huquq talablari jamiyat va davlatda o'z yechimini topgan bo'lishi zarur. Bu Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshirilishi (32-m.), ommaviy axborot vositalarining erkinligi, senzura yo‘l qo‘yilmasligi belgilab berilgan (67-m.). «Mamlakatda adolat prinsiplari amal qilishi, barqarorlik hukm surishi uchun uch subyekt, ya’ni davlat, jamiyat va fuqarolarning munosabatlarda uyg‘unlikka, ularning manfaatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, ota-bobolarimiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo‘ladi»¹.

Demokratik jamiyatning shakllanishida jamoat birlashmalarining faoliyatisiz qonun ustuvorligi prinsipining amalda ishlashini ta’minlay olmaymiz. Bu sohada, shubhasiz, jamoat birlashmalarining faoliyatini ham takomillashtirish muammosi turibdi. Siyosiy partiyalarning tajribasi va fikri demokratik hamda oshkora tarzda hisobga olinishi lozim. Ta’kidlash joizki, demokratik jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Binobarin, «...huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina, yashaydi va ro‘yobga chiqadi»². Huquqiy normalarni odamlar ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining, bu normalarning odamlar orqali amal qilishida esa nodavlat tashkilotlarning xizmati beqiyos. Shu ma’noda, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash ommaviy axborot vositalari uchun asosiy vazifaga aylanishi kerak. Bunda to‘sqinlik qiluvchi barcha omillarni bartaraf etish va mavjud mezonlarni takomillashtirish asosiy muammodir.

Respublikamizda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash amaldagi va qabul qilinaajak qonunlarimizni umume’tirof etilgan xalqaro normalar va qoidalarga moslashtirish, muayyan qonunchilik strategiyasiga ega bo‘lish, demokratik fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning asosiy omilidir. Huquq ustuvorligi davlat hokimiyatining cheklanishi, korrupsiyaning mavjud emasligi, tartib va xavfsizlik, fundamental huquq, hukumatning ochiqqligi, huquqni qo‘llash, fuqarolik adliyasi va jinoyat adliyasi bilan belgilanadi³. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish

¹ *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор таракқиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 26–27.

² *Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б. 32.

³ *Сабирова Л. Л.* Реализация идеи верховенства закона в современной России // Вестник экономики, права и социологии. – 2016. – №1. – С. 163.

uchun huquq ustuvorligi bilan bog‘liq belgilarni rivojlantirish, undan keng foydalanish zarur.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, insonning asosiy huquq va erkinliklarini qat‘iy himoya qilmasdan va amalda ta‘minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas. Zero, inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik jamiyatni barpo etishda inson huquqlari roliga yetarli baho bermaslik mumkin emas. Asosiy huquq va erkinliklarning rag‘batlantirilishi hamda himoyalaniishi, yanada muhimrog‘i, jamiyatda har bir inson huquqlari kafolatlarining amalda tizimli tashkil etilishi – huquqiy davlat qurishning bosh omili hisoblanadi. Bugungi kunda Yevropa, Amerika va Afrika huquq tizimlari mintaqada inson huquqlarini ta‘minlash va inson manfaatlarini himoya qilishning ko‘proq rivojlangan tizimi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, uning manfaatlarini himoya qilish hamda ustuvorlik berish nuqtai nazaridan 60 dan ziyod xalqaro huquqiy hujjatlarga imzo chekkan va ularni tan olgan.

Inson huquq va manfaatlari inson shaxsi va turmushining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ustuvorligi xalqaro huquqiy normalarda, O‘zbekiston milliy huquqida o‘z aksini topgan. Inson huquqlarini tartibga soluvchi, uning manfaatlari ustuvorligini ta‘minlovchi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida BMTning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning o‘rnini alohida ta‘kidlash joiz. Unda inson huquq va erkinliklari shaxsning daxlsiz xususiyati sifatida izohlangan. Mazkur xalqaro hujjat shaxs maqomini belgilashda davlatning favqulodda rolini pasaytiradi. Bu davlat tomonidan inson huquq va erkinliklarini cheklashlarga muayyan talab qo‘yishda namoyon bo‘ladi. Bu, birinchidan, qonunga asoslanish, ikkinchidan, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, demokratik jamiyatda axloq, jamoat tartibi va yalpi farovonlik talablarini qondirish (29-m.) maqsadini amalga oshirishda ifodalanadi. O‘z o‘rnida ta‘kidlash kerakki, inson huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish sohasida mamlakatimiz tomonidan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida», «Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro Paktlar (1966-y.), BMTning «Yosh bolalar huquqlari to‘g‘risida» (1989-y.), «Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo‘qotish to‘g‘risida» (1979-y.), «Qiynoqlar va inson qadr-qimmatini yerga uruvchi muammolar hamda jazo turlariga qarshi» (1984-y.) Konvensiyalar ratifikatsiya qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro huquq andozalarini qabul qilish jarayonining yanada samarali kechishini ta‘minladi. Shu asosda O‘zbekiston o‘z milliy qonunchiligida inson manfaatlari, huquq va erkinliklari

mustahkamlab qo'yildi, hozirgi kunda ularning ustuvorligi ta'minlanmoqda. Albatta, buning uchun respublikamizda o'ziga xos va jahon andozalaridan kelib chiqqan holda demokratik institutlar tashkil etildi (masalan, Oliy Majlisning Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakili – Ombudsman, Inson huquqlarini himoya qilish milliy Markazi va boshqa).

Ma'lumki, demokratik davlatlar qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini cheklash, kuch ishlatish yoki kuch ishlatishga to'g'ridan-to'g'ri da'vat, muayyan shaxslarning qadr-qimmati, obro'sini haqoratlashga qarshi qator qonunlar mavjud. O'zbekiston Respublikasida ham shunday mazmundagi qonunlar qabul qilingan. O'zbekistonning har bir qonuni fuqarolar huquqlarining cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka va inson huquqlari hamda erkinlarining amaldagi tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator me'yorlarga ega. Bunga O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni misol bo'ladi. Mazkur qonunning 6-moddasida shunday deyiladi: «ommmaviy axborot vositalaridan O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan da'vat qilish, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi...».

Davlatimizning eng muhim masalalaridan biri – davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda inson oliy ijtimoiy qadriyat ekanligi prinsipining joriy etilishidir. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishni kafolatlovchi sharoitlarni yaratadi, barcha davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga qonunlarga rioya etish, zarur hollarda esa tazyiqlardan muhofaza etish majburiyatini yuklaydi. O'zbekiston fuqarolari o'z manfaatlarini nafaqat O'zbekiston Respublikasi hududida, balki uning tashqarisida ham himoya etilishini talab qilish huquqiga ega. Konstitutsiyada yashash huquqining e'tirof etilishi davlat oldiga shaxs hayotini himoyalash hamda uni ijtimoiy xavfli tajovuzlardan muhofazalashning amaldagi mexanizmini yaratish masalasini qo'yadi. Bu faqat jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida huquqni himoyalash faoliyatigagina emas, ijtimoiy sohada inson hayotini saqlashning barcha choralari ta'minlash faoliyatiga ham tegishlidir. Insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-

profilaktika tadbirlarining huquqiy ta'minlangan tizimi yashash huquqining jiddiy kafolatlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi (1993-yil 6-may) qonunida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligi prinsiplariga asoslanadi. Respublikamizda yashash huquqini kafolatlash maqsadida fuqarolarning sog'ligini saqlash sohasidagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi (1996-yil 29-avgust) qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jinoyat qonuni yashash huquqini himoya qilish sohasida alohida o'ringa ega bo'lib, u yashash huquqini himoyalash choralari iborat tizimni tashkil etadi. Jinoyat qonunchiligining asosiy manbasi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining mohiyatiga e'tibor qaratsak, unda ham inson va uning hayoti birinchi o'rinda turishiga guvoh bo'lamiz. Odil sudlovning asosiy prinsiplaridan birini aybsizlik prezumpsiyasi tashkil etadi. Jinoyat kodeksi 4-moddasining ikkinchi qismida konstitutsiyaviy prinsipni rivojlantiruvchi qoida aks etgan bo'lib, unda hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar misolida ko'rishimiz mumkin, qabul qilingan barcha qonunlarimizda inson va uning manfaati oldingi o'ringa qo'yilgan. Inson manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan hamda bugungi kunda ularning bajarilishi ijobiy darajada ta'minlanmoqda.

2-§. Taraqqiyotning «o'zbek modeli»da qonun ustuvorligi prinsipining ifodalanishi

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyekti hisoblanadi. Davlatimizning dunyo siyosiy maydoni tomonidan tan olinishida esa mustaqil O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli» muhim va beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, «o'zbek modeli»ning asosiy prinsiplaridan biri – qonunlar va ularga amal qilinishining ustuvorligini ta'minlashdir. Zero, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat – bu qonun bilan boshqariladigan jamiyat va davlatdir. Qonun jamiyat va davlat boshqaruvining birdan-bir vositasidir. Qonun ustuvorligi tamoyili:

birinchidan, xalq manfaatlarini ifodalaydigan adolatli qonunlarni ishlab chiqarishni;

ikkinchidan, qonunlarni soʻzsiz ijro etilishini taʼminlashni;
uchinchidan, fuqarolarning yuksak darajadagi siyosiy va huquqiy madaniyatini talab etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining bosh strategik maqsadi – keng ijtimoiy yoʻnaltirilgan, barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasida shunday degan edi: «asosiy masala – qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va masʼul ijrochilarga oʻz vaqtida yetkazish, ularning ijrosini toʻgʻri tashkil etish hamda qonun talablariga qatʼiy amal qilishni taʼminlashdan iboratdir. Afsuski, mazkur yoʻnalishdagi ishlar talab darajasida emas. Buning oqibatida oxirgi uch yilda davlat organlarining 157 ta qarori oʻz kuchini yoʻqotgan qonunlar asosida chiqarilgan. Endi oʻylab koʻraylik, qonunchilikka kiritilayotgan yangiliklar oʻz vaqtida joylarga, ayniqsa, ijrochilarga yetkazilmaydigan boʻlsa, ularning bajarilishi haqida nima deyish mumkin? Bu muammoni samarali hal qilishning birdan-bir yoʻli – qonunlar ijrosini tashkil etish boʻyicha soatdek aniq ishlaydigan mexanizm yaratishdir»¹.

Darhaqiqat, qonunlarning qabul qilinishi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, «qonunni buzishga hech kimning haqqi yoʻq. Chunki qonun – xalqning xohishi-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qoʻygan kishidir. Biz qonunni hurmat qilish, unga boʻysunish, rioya qilish yoʻlidan borsak, istiqbolimiz porloq boʻladi»². Binobarin, huquqiy demokratik davlatda qonun ustunligi taʼminlanadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari qonun yordamida himoya qilinadi. Yaʼni qonun huquqiy davlatni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qiluvchi qurol hisoblanadi. Xalqaro huquqiy munosabatlar nuqtai nazaridan ham mamlakat oʻz qonunchiligiga binoan xorijiy davlatlar, tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Bu oʻrinda qonunning ustunligi mamlakatning tenglar ichida tengligini belgilab beradi. «Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qatʼiyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xoʻjalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga

¹ *Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.*

² *Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б. 435.*

bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir»¹.

Huquqiy davlat shakllanishi va rivojlanishi uchun o‘ziga xos real omillar mavjud bo‘lishi kerak. Shunday omillardan biri – qonun ustuvorligidir. Jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipiga amal qilinmas ekan, unda huquqiy davlat haqida fikrlashning o‘zi absurd. Qabul qilingan qonunlar jamiyat a‘zolari tomonidan xayrixohlik bilan kutib olinsa va ular tomonidan qonunlarga so‘zsiz rioya etilsa, huquqiy davlat qaror topadi. Ta’kidlash zarurki, «o‘zbek modeli»ning muhim prinsipi qonunlarning ustuvorligi jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qonunlar ustuvorligi orqali mamlakatda ijtimoiy adolat o‘rnatilar ekan, bu jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlaydi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli nizo va kelishmovchiliklarning oldini oladi, barchaning qonun oldida tengligini ta’minlaydi. Xususan, Asosiy qonunimizning 18-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar», deb belgilab qo‘yilishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, bugun respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qilmoqda. Qolaversa, mamlakatimizda ayollarning erkaklar bilan bir xil teng huquqqa egaligi belgilab qo‘yilgan. Qonunlarimizda xotin-qizlarni davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishini ta’minlash maqsadida bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Xususan, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunlarning 22-moddasida xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o‘ttiz foizini tashkil etishi lozimligi o‘z ifodasini topgan. Keltirilgan misoldan ko‘rishimiz mumkinki, respublikamizda qonunlar orqali tenglik prinsipi qaror topmoqda. Demak, jamiyatda qonun ustuvorligi ta’minlanishi tenglik va ijtimoiy adolatni ro‘yobga chiqishida ham muhim o‘rni tutadi, albatta.

Qonunlarning ustuvorligi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qonunlar orqali tartibga solinishi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi. Qonunlar bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar buzilganda, uni buzgan oddiy fuqarodan mansabdor (hatto, oliy mansabdor) shaxsgacha qattiq jazolanishi ko‘zda tutiladi. Zero, Prezidentimiz

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т., 1996. – Б. 321.

SH. M. Mirziyoyev aytganidek, «xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qurbi yetmaydigan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan jiddiy choralar ko'riladi»¹. Bu esa, jamiyatda yuzaga keladigan turli huquqbuzarliklarning oldini olishga, mansabdor shaxslarning o'z vazifalarini sidqidildan ijro etishlariga xizmat qiladi.

Har bir mamlakatda qonunlar ustuvorligi, fuqarolarning qonunlarga bo'lgan hurmati va itoatkorligi o'sha davlatning barqarorligini, osoyishtaligini ta'minlaydi hamda jamiyatda adolatni o'rnatadi. Qonun ustuvorligiga erishmasdan turib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qura olmaymiz. Buning uchun esa fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U – qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir»², degan edi. Huquqiy madaniyat yuksalgan jamiyatda hech kim qonunlarni buzmaydi yoxud uni «chetlab o'tish»ga harakat qilmaydi. Chunki, qonunlar xalq xohish-irodasini ifodalab, jamiyat tinchligi, osoyishtaligi hamda ijobiy xatti-harakatlarga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda huquqiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson huquqlari ham shunchalik yuqori ta'minlanadi. Professor U. Tadjixanov ta'kidlaganidek, «huquqiy madaniyat deganda, jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu tizimdan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilishi darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz»³. Har bir fuqaro yoki mansabdor shaxs huquqiy madaniyatli bo'lsa, qonunlarga amal qilsa, jamiyatda inson huquqlari buzilmaydi. Qonunning eng asosiy vazifasi ham inson huquqini himoya qilish, uni ta'minlashdan iborat.

Qonunlarning har tomonlama mukammalligi, hayotga to'g'ri tatbiq etilishi fuqarolar tomonidan ularning bekamu-ko'st bajarilishiga olib keladi. Qonunni turli yo'llar bilan «chetlab o'tish»ga xizmat qiluvchi turli salbiy omillarga barham beriladi. Buning samarasi o'laroq, jamiyatda huquq-tartibot o'rnatiladi, huquqbuzarlik sodir bo'lmaydi, ya'ni jamiyat

¹ *Мирзиёев Ш. М.* Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // URL – <http://uzlidep.uz/uzc/news/demokratik-islokhotlarni-izchil-davom-ettirish-halkimiz-uchun-tinch-va-osoyishta-munosib-khayot>

² *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 22.

³ *Таджиканов У., Саидов А.* Ҳуқуқий маданият назарияси. Т.1. – Т., 1998. – Б. 11.

ma'naviy-ruhiy tozalanadi, poklanadi. Eng muhimi, inson huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlarining ta'minlanishida muhim omil bo'ladi. Shu ma'noda ham, «o'zbek modeli»ning muhim prinsiplaridan bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash jamiyat hayotida har doim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

3-§. Jamiyatni demokratlashtirishda qonun ustuvorligining ahamiyati

Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi, avvalambor, demokratiyaga xos bo'lgan xususiyatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Mustaqillik yillari insonparvarlik, adolatli jamiyat qurish g'oyalari bilan sug'orilgan bir qator qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Chunonchi, Oliy Majlis tomonidan 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun bilan mamlakatimizda yarashuv instituti joriy etildi, Jinoyat kodeksida o'lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo'llanildi.

Ma'lumki, mamlakatimizning 1995-yilgacha amalda bo'lgan Jinoyat kodeksida 33 ta jinoyatga o'lim jazosi qo'llanilar edi. Yangi qabul qilingan Jinoyat kodeksida esa ularning 13 tasi saqlab qolindi, ya'ni 20 ta turdagi jinoyatdan o'lim jazosi olib tashlandi. Jumladan, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va voyaga yetmaganlarga nisbatan bu jazo qo'llanilmasligi qayd etildi. Shuningdek, o'lim jazosi avf etish tartibida yigirma besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilishi mumkinligi belgilab qo'yildi (JKning 51-moddasi). 1998-yilda Jinoyat kodeksidagi beshta moddadan o'lim jazosi olib tashlandi. 2001-yilda yana to'rtta moddaga jazo qisqartirildi. 2004-yilda esa mazkur jazo aybni og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyati uchun tatbiq etiladigan bo'ldi. Ayniqsa, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash borasidagi say-harakatlar muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi farmoni mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida mustahkamlash yo'lida

qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, jinoiy jazolarni liberallashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash nuqtai nazaridan «O'zbekistonda 2008-yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi»¹. Ma'lumot o'rnida aytib o'tsak: hozirgi kunda 100 ga yaqin davlatlar qonunchiligida o'lim jazosi bekor qilingan, bundan tashqari, 30 dan ortiq davlatlar qonunchiligida o'lim jazosi mavjud bo'lsa-da, amaliyotda qo'llanilmaydi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qonunlar, avvalo, fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ishlab chiqiladi, ularning xohish-irodasini o'zida aks ettiradi. Biroq qonunchilik amaliyotidan ma'lumki, ayrim qonunlar qabul qilingach, real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmaydi va ijrosi ta'minlanmay qolib ketadi. Bizningcha, buning o'ziga xos sabablari bor:

birinchidan, qonunlarning zamon talablaridan kelib chiqqan holda qabul qilinmasligi;

ikkinchidan, qonunlarni ishlab chiqishda mahorat va salohiyatning (professionalizm) yetishmasligi;

uchinchidan, fuqarolar o'zlarining qonuniy haq-huquqlarini yetarli darajada bilmasligi.

Ta'kidlash kerakki, qabul qilingan qonunlarga amal qilish barcha uchun hayotiy obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Bu zarurat mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi. Qonunlarga amal qilinmasligi esa ushbu sohalarda turg'unlik holati yuzaga kelishiga olib keladi. Shu bilan birga, qonunlarni ijro etmaslik holatlari mavjud ekan, jamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmaydi. Qonun ustuvorligiga xilof ish qilish va unga mensimay qarash, ayniqsa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarga itoat etmaslik, uni «aylanib o'tish», o'z manfaati yoxud g'arazli maqsadlarda foydalanish qonunlarni obro'sizlantiradi, davlat va jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazadi, xalqning noroziligiga sabab bo'ladi. Fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan munosabatlari jarayonida qonunlarga rioya etilishi yoki etilmasligi «fuqaro – davlat» munosabatlarining butun bir tizimdagi ijtimoiy adolat qoidalarining holatini belgilab beradi. Davlatimiz rahbari SH. M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, «qonun talablarini bajar-

¹ Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T. 19. – T., 2011. – B. 59.

mayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma'muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur»¹. Bu esa, o'z navbatida, rahbar va mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan qonunga zid xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni (2017-yil 3-yanvar) ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, «qonun ustuvorligini ta'minlash har bir mutasaddi rahbar va ayniqsa, huquq-tartibot idoralarining dolzarb vazifasi bo'lib qolishi kerak»². Buning uchun davlat idoralari tomonidan qonunlarni «aylanib o'tish», buzish harakatlariga chek qo'yilishi shart. Chunki, bunday xatti-harakatlar fuqarolarning davlat hokimiyatiga ishonchini yo'qotadi. Shu ma'noda ham, qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlardan ko'proq yetakchilik qilish talab etiladi.

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, xohish-irodasining amalga oshishi, ezgu maqsad va niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Bu o'rinda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish davr talabiga aylanadi. Shu ma'noda, «jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha yangi Milliy dasturni yaratish»³ bugungi kunda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimizdan biri edi. «Mamlakat taraqqiyotida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, davlat siyosatini xalq irodasi asosida yuritish amaliyotini o'rnatish, qabul qilinayotgan qonunlarda aholining manfaatlari kengroq ifodalani-shiga erishish, jamiyatdagi ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlarini mutanosiblashtirish va kelishtirish, hokimiyat organlariga yangi va sog'lom kuchlarning kirib kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholining siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish va nihoyat, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish»⁴ dolzarb masalalardan hisoblana-di. Agar fuqarolarda huquqiy madaniyat yuksalmagan bo'lsa, jamiyatning rivojlanishi ortga surilishi muqarrar. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi birinchi chaqiriq IX sessiyasida

¹ *Мирзиёев Ш. М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.

² *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – Б. 285.

³ *Мирзиёев Ш. М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.

⁴ *Холов А.* Давлат бошқарувини демократлаштириш ва модернизациялаш жараёнида сиёсий партияларнинг роли // Вопросы модернизации системы государственного управления: сб.ст. / Ш.Науумов, Ш.Тошматов, Х.Вайнуддинов. – Т., 2014. – С.198.

«Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi» qabul qilindi. Chunki, «yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir. Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli, keng ko‘lamli chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi»¹. Shunday ekan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish jarayonida huquqiy targ‘ibot-tashviqotni amalga oshirish o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Huquqiy madaniyat – bu qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta’minlash, har bir shaxsning, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an‘analarga va huquqiy bilimlarga bo‘lgan munosabati belgilaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, huquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko‘tarish g‘oyaviy tarbiya borasidagi faoliyatimizning asosiylaridan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat va savodxonlikni rivojlantirmay turib, qonunbuzarlik kabi salbiy holatlarning oldini olish ancha mushkul ish. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonun oldida barcha barobar hisoblanadi va mamlakatdagi qonun-qoidalarga jami fuqarolar – yoshi, tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar – barcha bir xil bo‘ysunadi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish barkamol avlodni tarbiyalashning obyektiv zaruriyatini taqozo etadi. Bu jarayon huquqiy tarbiyasiz amalga oshmaydi. Huquqiy tarbiyaning tarkibi bo‘lgan huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy bilimlarsiz demokratiya anarxiyaga yoki mustabidlikka aylanishi juda oson kechadi.

Qonun ustuvorligi huquqiy davlatning atributiv xususiyati hisoblanadi. Turli adabiyotlarda «huquqiy davlat qonun doirasida faoliyat yurituvchi davlatdir»², degan qarash mavjud. Xalq davlatni qonunlar yordamida jilovlaydi, uni xalq manfaatlariga xizmat qildiradi. Huquqiy davlatning boshqarish vositasi qonundir, degan fikr jamiyatimizda qonun ustuvorligiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligini anglatadi. Mustaqillik yillari bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilganini alohida aytib o‘tish joiz. Jumladan, ikki palatali (Qonunchilik palatasi va Senat)

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 27-28.

² Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т., 2010. – Б. 649-650.

parlamentga o'tganimiz, parlament nazoratini joriy etganimiz fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Dastlab Oliy Majlis, keyinchalik Prezident huzurida Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ta'sis etildi. Bundan tashqari, qonunlarning umumxalq muhokamasi tashkillashtirilmoqda. Buning samarasi o'laroq, qabul qilinayotgan qonunlarimizning sifati yildan-yilga oshib bormoqda. Biroq «qonun ustuvorligi» g'oyasi huquqiy tarbiya masalasini ham obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Chunki, qonunlar jamiyatning har bir a'zosi tomonidan hayotga joriy etilmasa, bundan hech qanday manfaat bo'lmaydi. Qonunga hurmat, e'tiqod bo'lmasa, huquqiy nigilizm ildiz otadi. Inson qonunga sig'inishi, uning quliga aylanishi kerak emas, aksincha, u qonunning yaratuvchisi va ijrochisi bo'lishi kerak.

4-§. Siyosiy partiya fraksiyalarining qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'rni

Siyosiy partiyalar fraksiyalari «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunning 25-moddasiga binoan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida fuqarolarning manfaatlarini ifodalaydi. Chunki, saylovchi o'z irodasini ifoda etgan holda davlatning oliy vakillik organida siyosiy partiyalar fraksiyalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan qonunlarning qabul qilinishiga harakat qiladi. Umuman, siyosiy partiyalar-ning fraksiyalari o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida partiya ma'muriyati manfaatini emas, balki elektorat va umumxalq manfaatini uyg'unlashtirishni ifodalaydigan qonun loyihalari borasida takliflar kiritishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Masalan, Germaniyada Bundestag Reglamentining 75-moddasi a-bandiga asosan, Bundestag fraksiyalari qonun loyihasi tashabbuskori bo'lishi, 76-moddaning birinchi qismiga binoan, Bundestag deputatlari tomonidan ilgari surilgan qonun loyihasi Bundestag fraksiyalaridan biri yoki Bundestag deputatlarining 5 foizi (hozirgi kunda 31 nafar) tomonidan imzolanishi shartligi ko'rsatib o'tilgan¹. 38-moddaning birinchi qismiga ko'ra, fraksiya tomonidan ilgari surilgan qonun loyihasini fraksiya qo'llab-quvvatlagani-dan va fraksiya yetakchisi imzolagandan keyin u rasmiy maqomga ega

¹ Кордик Д. Н. Законодательный процесс в европейских государствах: Россия, Германия, Австрия, Швейцария (сравнительно-правовой анализ): Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2007. – С. 66–69.

bo'ladi. Shveysariyada ham fraksiya tomonidan ilgari surilgan qonun loyihasi yoki qonunchilik taklifi (mazkur mamlakatda qonun loyihasi taklifidan tashqari, qonunchilik taklifi ham kiritilishi belgilangan) fraksiya rahbari tomonidan imzolanishi kerak¹. Jahonning ko'pgina mamlakatlari (Germaniya, Polsha, Chexiya, Shveysariya)da qonun ijodkorligi jarayonida fraksiyalarga keng vakolatlar berilganligini kuzatish mumkin.

Bilamizki, O'zbekistonda siyosiy partiyalar fraksiyalariga qonunchilik tashabbusi huquqi berilmagan. Tadqiqotchi I.A. Kotelovskayaning fikricha, «aslida, qo'mitalar hamda fraksiyalar fraksion yoki siyosiy deputatlar birlashmasini tashkil etadi, shuning uchun ularga qonunchilik tashabbusi huquqining berilishi konstitutsiyaviy normalarni buzmaydi»². Shu ma'noda, O'zbekistonda siyosiy partiyalar fraksiyalariga qonunchilik tashabbusi huquqining berilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. «Siyosiy partiya fraksiyalariga qonunchilik tashabbusi huquqining berilishi konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan qoidalarga zid emas va Qonunchilik palatasi deputatining qonunchilik tashabbusi huquqiga daxl qilmaydi, balki uni amalga oshirishdagi kamchiliklarini tuzatadi»³. Bu, *birinchidan*, qonunlarda belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning 27-moddasi va hok.) «qonunchilik tashabbusi huquqiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ega», degan tushunchaga aniqlik kiritadi. *Ikkinchidan*, fraksiya tomonidan taklif etilayotgan qonun loyihasi boshqa fraksiyalar va mas'ul qo'mita tomonidan o'rganib chiqilib, fikr, taklif va xulosalar berilishini ta'minlaydi. Bu esa qonun loyihasining qizg'in muhokamasiga sabab bo'ladi. Parlamentda kamchilikni tashkil etgan fraksiyani ham faollikka undab, taklif, tavsiya, xulosalar berishiga olib keladi. *Uchinchidan*, Parlamentda muxolafat deb e'lon qilingan fraksiyaga ham katta imkoniyat yaratib beradi. Ya'ni ular qonunlarda belgilangan (qarang: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning 25¹-moddasi, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun-

¹ Нисневич Ю. А. Компромисс и конформизм. – М., 2001. – С. 247–248.

² Кордик Д. Н. Законодательный процесс в европейских государствах: Россия, Германия, Австрия, Швейцария (сравнительно-правовой анализ): Дисс... канд.юрид.наук. – М., 2007. – С. 82.

³ Усмонов М. Новые подходы во фракционной деятельности и межфракционной конкуренции в парламенте // Демократизация и права человека. – 2014. – №4. – С. 103.

ning 2-moddasi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida»gi qonunning 9¹-moddasi) qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan subyekt tomonidan ilgari surilgan qonun loyihasining muqobil tahririnigina emas, balki o‘zi ham muxolafatdagi fraksiya sifatida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarida yuzaga kelgan huquqiy bo‘shliqni bartaraf etuvchi qonunlar loyihasini taklif etish huquqini qo‘lga kiritadi. Fikrimizcha, bunday qoidaning qonunchilikka kiritilishi fraksiyalar faoliyatini yaxshilash, raqobat muhitini qaror toptirish bilan birga, muxolafat institutining yanada takomillashuvini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ayrim xorijiy mamlakatlar, xususan, umumdavlat darajasida ushbu amaliyot Avstriya, Ispaniya, Italiya, Shveysariya, Braziliya, Filippinda xalqning qonunchilik tashabbusi amaliyoti qo‘llaniladi. Masalan, Braziliyada parlament tomonidan xalq qonunchilik tashabbusi taklifi qonun loyihasi sifatida qabul qilinishi uchun mamlakatning kamida beshta shtatidan bir foizdan kam bo‘lmagan imzo to‘planishi zarur. Shveysariyada yuz ming saylovchi Ittifoq konstitutsiyasiga butunlay yoki qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha xalq qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi mumkin. Ispaniyada besh yuz ming saylovchining taklifi bilan xalq qonunchilik tashabbusi huquqi amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, Ispaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat fuqarosiga yakka tarzda yoki jamoaviy yozma murojaat qilish huquqi berilgan. Italiya Konstitutsiyasining 71-moddasiga binoan, 50 mingdan kam bo‘lmagan saylovchilar Parlamentning palatalaridan biriga qonunning moddalaridan iborat shakldagi loyihani taqdim etishi ko‘zda tutilgan¹. «Referendum to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasi ikkinchi qismida O‘zbekiston fuqarolari referendumga qo‘yiladigan qonun loyihasini belgilashda teng huquqqa egaligi belgilangan². Demak, O‘zbekistonda fuqarolar qonunning referendum orqali ham qabul qilinishiga erishishlari mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, xorijiy mamlakatlardagi kabi Parlamentga fuqarolar qonun loyihasini bevosita emas, balki bilvosita – siyosiy partiyalar orqali taklif etish masalasini ko‘rib chiqish kerak. Parlament quyi palatasi saylovlarida ishtirok etib, yetarli ovoz to‘plab, fraksiyasini tuzgan siyosiy partiyalarga qonunchilik tashabbusi huquqi berilishi,

¹ Исмаилов Б. И. Реализация права законодательной инициативы в правоприменительной практике зарубежных стран и Республике Узбекистан, 2008 // URL – <http://www.allpravo.ru/library/doc117p0/instrum6914/print6915.html>.

² Ўзбекистон Республикасининг “Референдум тўғрисида”ги қонуни // URL – http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=81253&query=undefined.

bizningcha, maqsadga muvofiq. Bu, *birinchidan*, jamiyatda siyosiy partiyalar xalqning dardiga quloq tutadigan, ularning muammolarini hal etishda yordam beradigan subyekt sifatidagi rolini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. *Ikkinchidan*, mazkur amaliyot jamiyatda siyosiy partiyalar obro‘si-ning ko‘tarilishiga xizmat qiladi, ularning amorf va turg‘un holatdan chiqib, harakatchan va ishchan holatga kelishiga sabab bo‘ladi. *Uchinchidan*, siyosiy partiyalarning qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi demokratiyaning muhim elementi hisoblanib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xalaqit bermaydi, aksincha, taraqqiyotini yanada tezlashtiradi. *To‘rtinchidan*, ko‘ppartiyaviylik tizimi sharoitida siyosiy partiyalar o‘rtasida qonun loyihasini taklif etishdan to uni qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonlarda raqobat muhitini yuzaga keltirib, qonunlar sifatining yanada oshishiga olib keladi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalari qonun chiqarish faoliyatida ta’sirchan qatnashib, shu tariqa davlat boshqaruviga munosib hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar¹. Siyosiy partiyalar fraksiyalari muhokama etgan va parlament tomonidan qabul qilinishi ko‘zda tutilgan qonunning sifati kelajakda davlat mexanizmining mukammal faoliyatini ta’minlab berish uchun xizmat qiladi. Tadqiqotchi S.M.Baramidze Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi misolida «deputatlar fraksiyasi amaldagi qonunlarga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas, lekin qonunchilik tashabbuslari oqimini tartibga solish va reglamentini belgilashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi»², degan fikrni bildiradi. Bizning qonunchiligimizda ham aynan shu holat ko‘zga tashlanadi, ya’ni fraksiyalar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lmasa-da, muayyan darajada qonun loyihalarini ishlab chiqish, muhokama etish, taklif, mulohaza hamda xulosalar berishi belgilangan.

Partiyaning parlamentdagi vakillari fraksiyalarni tashkil etadi. Partiya va fraksiyalar yetakchilari, odatda, fundamental siyosiy e’tiqodlari orqali guruh va uyushmalarni hosil qiladi. Siyosiy partiya va fraksiya o‘rtasida kamdan-kam hollarda barqaror nizo sodir bo‘ladi. Partiya liderlari (parlament guruhi yetakchilari yoki fraksiyalar) katta ta’sir kuchiga ega bo‘ladilar. Ular parlamentdagi vazifalaridan tashqari, partiya va uning parlamentdagi fraksiyalari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan keskin munosabatlarni yumshatishga harakat qiladilar. Fraksiyalardagi birdamlik hamda tar-

¹ *Одилқориев Х. Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б. 96.

² *Барамидзе С. М.* Конституционно-правовой статус политических партий: законодательное регулирование и его развитие: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, 2012. – С. 22.

tib zaruriy va qonuniy holatda bo‘lishi lozim¹. Bunday sog‘lom holat muhokama va qabul qilinayotgan qonunlarda o‘z ifodasini topadi. Aytish joizki, fraksiyalar tomonidan muhokama qilinayotgan qonunlar keskin munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. Lekin bunday jarayonlarda fraksiya a‘zolarining muammoni partiyalar dasturlarida belgilangan vazifalarni hisobga olib hamda elektorat manfaati nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda hal etishi ijobiy natija beradi. Shuningdek, muhokama qilinayotgan qonun bo‘yicha fraksiya a‘zolarining hamfikrligi partiya fraksiyasi ichki demokratiyasining ustunligidan dalolat beradi.

«Siyosiy partiyalar o‘zlarining parlamentda egallagan salmoqlaridan kelib chiqib, o‘z fraksiyalari vositasida qonunlarni qabul qilish, hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilish kabi xalqaro me‘yorlardagi faol siyosiy jarayonlarga tortiladilar»². O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq, muayyan deputat qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, muhokama uchun qonun loyihasini kiritishi mumkin. Lekin deputat tomonidan kiritilgan (u o‘z huquqidan foydalanib, hech qanday fraksiyaga a‘zo bo‘lmas-da) qonun loyihasi fraksiya majlislarida muhokama qilinishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Chunonchi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasida Qonunchilik palatasi Kengashi Muvofiqlashtiruvchi guruhning axborotini eshitib, qonun loyihasini dastlabki tarzda ko‘rib chiqishi uchun bir vaqtning o‘zida mas‘ul qo‘mita va fraksiyalarga qonun loyihasi hamda unga ilova qilingan materiallarni topshirishi belgilangan. Taqdim etilgan qonun loyihalari muhokamasi siyosiy partiyalarning fraksiyalari va mas‘ul qo‘mita tomonidan bir vaqtda ko‘rib chiqiladi. Qonunda ko‘zda tutilganidek, fraksiyalarning qonun loyihalari bo‘yicha fikrlari va takliflarisiz mas‘ul qo‘mita o‘z xulosasini chiqarish huquqiga ega emas³. Keltirilgan misolda mas‘ul qo‘mitaning siyosiy partiyalar fraksiyalari fikri bilan hisoblashish mexanizmi aks etgan, ya‘ni qonun loyihalarini ko‘rib chiqish vazifasi bir vaqtning o‘zida ham mas‘ul qo‘mita, ham fraksiyalarga belgilangan, fraksiyalarning fikr va takliflarisiz mas‘ul qo‘mita xulosa chiqarish huquqiga ega emas.

¹ *Hofmeister W.* Political parties: functions and organisation in democratic societies / Wilhelm Hofmeister and Karsten Grabow. – Singapore: Konrad Adenauer Stiftung, 2011. – P. 70–71.

² *Қудратхўжаев Ш. Т.* Ўзбекистонда профессионал парламент тизимининг сиёсий институт сифатида шаклланиши ва ривожланиши истиқболлари. – Т., 2007. – Б. 108.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси регламенти тўғрисидаги Қонун // URL –http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=39573&query=undefined.

Deputatlar fraksiyasining qonun ijodkorligi faoliyati siyosiy partiyalarning dasturiy ko'rsatmalari, maqsad va vazifalari, g'oyaviy-siyosiy va tashkiliy asosi hamda tarkibi va faoliyati singari bir qancha omillarga bog'liq¹. Bundan tashqari, umummanfaat nuqtai nazarini ham hisobga olishi zarur. Chunki, qabul qilinayotgan qonun muayyan siyosiy partiyaning dasturida aks etgan g'oyalarni yoki uning elektorati manfaatining ifodalashi bir tomonlama yondashuvni keltirib chiqaradi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir etib, ijtimoiy norozilik yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shu sababli, deputatlar tomonidan siyosiy partiyaning dasturlari, saylovoldi platformalarida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan qonun loyihalari tashabbusining kiritilishi, uning muhokamasini (fraksiya, parlament doirasida) amalga oshirilishida umumxalq manfaatiga uyg'unlashtirish ijobiy natija beradi. Haqiqatan ham, siyosiy partiyalar «bir qator muhim vazifalarni, shu jumladan, davlat hokimiyati organlarida fuqarolar manfaatini ifodalovchi vakillikni amalga oshiradi»². Bundan ko'rish mumkinki, siyosiy partiyalar nomzod sifatida ko'rsatgan va saylangan deputatlar davlat hokimiyatining mahalliy va oliy organlarida fuqaro manfaatini ifodalaydigan qarorlar yoki qonunlar qabul qilinishida faol tarzda ishtirok etadi.

Ayniqsa, siyosiy partiyalarning davlat va fuqaro o'rtasida yuzaga keladigan dialektik o'zaro munosabati qonun ijodkorligi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni siyosiy partiyalar dasturi va elektorat manfaatidan kelib chiqib, qonun ijodkorligi faoliyatini amalga oshiradi. Tadqiqotchi S. Zaslavskiy siyosiy partiyalarning qonunlashtirish va jamlash funksiyalarini ajratadi. Siyosiy partiyaning *qonunlashtirish funksiyasi* fuqarolik jamiyatining ma'lum qismi manfaatlarini davlat hokimiyati organlari faoliyatida qatnashish orqali amalga oshirilishini anglatrsa, *jamlash funksiyasi* doirasida aholining ijtimoiy, etnik, yosh toifasi manfaatlarini o'zlashtirish, sintezlash hamda keyinchalik, partiya tomonidan ishlab chiqilayotgan mafkuraviy ta'limotlar va siyosiy dasturlarda ifodalash amalga oshiriladi³. Yuqoridagi funksiyalardan kelib chiqib, siyosiy partiyalar elektorat manfaatlarini

¹ Савушкина О.В. Роль политических партий в законодательном процессе в условиях реформирования федеративных отношений в современной России: Дис. ... канд. полит. наук. – М., 2005. – С. 92.

² Курочкин А.В. Политические партии и движения в современной российской государственности: политико-правовое исследование: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, Казанский государственный университет, 2003

³ Кузьмин А. В., Карчевская Н. И., Терских И. Ю. Некоторые проблемы реализации законотворческой функции политической партии как института гражданского общества // История государства и права. – 2008. – № 12. – С. 2.

amalga oshirishni o'z dasturlariga olib chiqadi hamda davlat hokimiyati (parlament va ijro etuvchi hokimiyat) faoliyatida ishtirok etib, belgilangan maqsad va vazifalarni qonunchilikka tatbiq etishga harakat qiladi. Siyosiy partiyaning funksiyasi shu bilan to'xtab qolmaydi: u qabul qilingan qonunning ijrosini ta'minlash bilan ham shug'ullanadi. O'zbekistonda hukumat rahbari nomzodini parlament quyi palatasida eng ko'p yoki teng miqdorda deputatlik o'rnini qo'lga kiritgan siyosiy partiya taklif etishi belgilangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hukumat rahbari Vazirlar Mahkamasining a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tasdiqlash uchun taqdim etishda o'zining nomzodini ilgari surgan siyosiy partiyadan ko'rsatishi mumkinligi ham ehtimoldan xoli emas¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «... avvalambor, qonun loyihalarini puxta va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soladigan darajada ishlab chiqish»² lozim. Haqiqatan ham, qonunlarning puxta ishlanishi bevosita siyosiy partiyalar fraksiyasining ishchan faoliyatiga bog'liq. Parlament quyi palatasidagi tortishuv va bahslar qonun qabul qilish jarayonlarida yaqqol ko'rinadi. Har bir partiya fraksiyasi partiya dasturida belgilangan, elektorat manfaatiga mos keladigan qonun va qarorlar qabul qilinishiga harakat qiladi. Demak, siyosiy partiya hamda uning parlamentdagi fraksiyasi oliy vakillik organi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, partiyalarning parlamentdagi fraksiyalari qonun ijodkorligi jarayonida amaliy faollikni namoyon etadi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol harakatlarni amalga oshirayotgan siyosiy partiyalar o'z elektoratining manfaatlarini ifodalaydigan, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan sifatli qonunlar qabul qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bunda Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyaning o'рни beqiyosdir. Darvoqe, huquqiy davlat sharoitida Konstitutsiya parlamentda vakillariga ega bo'lgan har qanday partiya uchun qonunchilik tashabbusi huquqini berishi kerak. Bu, *birinchidan*, fuqarolik jamiyati doirasida turli ijtimoiy guruhlardagi tanglikni yumshatish imkonini beradi. *Ikkinchidan*, har bir parlament partiyasi fuqarolik jamiyati manfaatlarini e'tiborga olib, uni yaqqol namoyon qiladi. *Uchinchidan*, hozirgi paytda siyosiy partiyalar faqat o'z pozitsiyasi haqida siyosiy bayonot berish bilan cheklanib qolishini

¹ *Абдуллаев Ж. М.* Ижро этувчи ҳокимият органлари фаолияти устидан парламент назоратини амалга оширишда сиёсий партиялар ролининг кучайиши // Жамоатчилик назорати ва унинг шакллари: илмий-назарий жиҳатлари. Илмий-амалий семинар материаллари. – Т., 2012. – Б. 71.

² *Мирзиёев Ш. М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.

emas, balki ularning qonun ijodkorligi faoliyatini rag‘batlantiradi¹. Demak, parlament partiyalari tomonidan chiqariladigan qonunlar umumxalq manfaatiga xizmat qilishi lozim.

F.Musayev shunday deydi: «Parlamentda qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish chog‘ida turli fraksiyalar o‘rtasida qizg‘in bahs-munozaralar bo‘layotgani partiyalarning siyosiy faolligiga misol bo‘la oladi»². Shubhasiz, parlamentda faoliyat yuritayotgan partiya fraksiyasi a‘zolari ma‘lum bir qaror, qonunlarni qabul qilish jarayonida o‘z partiyasi manfaatidan kelib chiqqan holda yondashadi. Bu esa o‘z-o‘zidan partiya fraksiyasi faolligini yuzaga keltiradi. Aks holda partiya fraksiyasi a‘zolarining muayyan normativ hujjat qabul qilish jarayonidagi sustligi yoki harakatsizligi ikki tomonlama, ya‘ni partiya faolligiga ham, parlament faoliyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Fraksiya a‘zolari o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etsa, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi qonun qabul qilinadi. Shu sababli, ular tomonidan muhokama qilinayotgan qonun loyihalarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, qonun ustuvorligi ruhi ustun bo‘lishi muhimdir. Fraksiya a‘zolari o‘z faoliyatiga jiddiy yondashib, tenglik, adolat prinsiplariga tayanishi shart. Ba‘zi hollarda partiya fraksiyalarining faoliyati deklarativ xususiyat kasb etmoqda. Qolaversa, qonun loyihalari tashabbusi bilan chiqishda fraksiyalararo jonli va sog‘lom bahslashuv, siyosiy g‘oya va yondashuvlar raqobati, afsuski, yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2005-2009 yillardagi faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik tashabbusi huquqi deputatlarda emas, balki ushbu huquqqa ega boshqa subyektlarda bo‘lgan. Deputatlar esa aksar hollarda amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bilan kifoyalanib qolgan.

«O‘tgan besh yil mobaynida parlament tomonidan qabul qilingan 140 dan ziyod qonunning atigi 19 tasi Qonunchilik palatasi deputatlari tashabbusi bilan qabul qilingan... ana shu qonunlarning bor-yo‘g‘i 3 tasi yangi qonunchilik hujjatlari bo‘lib, 16 tasi amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq, asosan yuridik-texnik xususiyatga ega bo‘lgan qonun hujjatlaridir. Fraksiyalar va deputatlar faoliyati yanada faol va mazmunli bo‘lishi, o‘z siyosiy partiyalari va ularning elektorati manfaat-lari hamda ko‘rsatmalarini hisobga olgan holda yo‘lga qo‘yilishi lozim.

¹ Кузьмин А. В., Карчевская Н. И., Терских И. Ю. Некоторые проблемы реализации законотворческой функции политической партии как института гражданского общества // История государства и права. – 2008. – №12. – С. 3.

² Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий-хукукий асослари. – Т., 2007. – Б. 66.

Ayni paytda partiya va fraksiyalarning u yoki bu qonun bo'yicha pozitsiyasi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim masalalariga doir fraksiyalararo bahs-munozaralar mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilik va saylovchilarni har tomonlama to'liq xabardor qilib borish darkor. Hokimiyat, xalq hokimiyati va parlamentarizmni demokratik asosda tashkil etishning mohiyati ham shundan iborat»¹.

Mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik milliy modeli o'zining rivojlanish bosqichida ekan, bu tizim parlament faoliyatida ham harakatlantiruvchi kuchga egaligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hozirgi paytda mamlakatimiz parlamentining quyi – Qonunchilik palatasi vakillari asosan siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar hisobidan shakllanayotgani ham buning yana bir tasdig'idir. Ya'ni siyosiy partiyalar fraksiyasidan uning elektorati ham jamiyat va davlat ham mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi qonunlar qabul qilinishini kutadi.

Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida siyosiy partiyalar faolligini oshiruvchi va ta'sirini kuchaytiruvchi hamda mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantiruvchi hujjatlardan biri «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi (2011 yil 18 aprel) qonundir². Mazkur qonunlar O'zbekistonda siyosiy partiyalar faolligining oshishiga, konstruktiv raqobat muhitining qaror topishiga, ayniqsa parlamentda yuzaga kelgan huquqiy makonda qonun ijodkorligi jarayonining qizg'in muhokamasiga shart-sharoit va imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, mazkur qonunlarning amalda qo'llanilishi natijasida siyosiy partiyalar markaz va joylarda, davlat va hokimiyat organlarini shakllantirish bilan birga, jamoatchilik nazoratini ro'yobga chiqarishda ham katta imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Shuningdek, hokimiyat vakillik organlarining ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilish borasidagi samaradorligi ortdi. Parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining parlament nazoratini yanada faollashtirish orqali hukumatga ta'sir etish imkoniyati kengaydi.

¹ Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // URL – <http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-islom-karimovning-zbekiston-respublikasi-oliy-mazh-23-01-2015>

² Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – № 15. – 151-м.

Fikrimizcha, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi fraksiyalariga qonunchilik tashabbusi huquqini berish lozim. Chunki, fraksiyalar tomonidan taklif etilayotgan qonunlar loyihasining boshqa fraksiyalar va mas'ul qo'mita tomonidan o'rganib chiqilishi qonun loyihalarining qizg'in muhokama qilinishiga olib keladi. Bu esa parlamentdagi muxolafat deb e'lon qilingan fraksiyaga ham katta imkoniyat yaratib, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyekt tomonidan ilgari surilgan qonun loyihalarining muqobil tahririnigina emas, balki jamiyatda yuzaga kelgan huquqiy bo'shliqni bartaraf etuvchi qonunlar loyihasini ham taklif etish huquqini beradi. Binobarin, parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan muhokama qilinadigan qonun loyihalari kelgusida umumxalq manfaatiga samarali xizmat qilishi lozim. Bunda fraksiyalardan yanada ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faollik, tashabbuskorlik talab etiladi.

5-§. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligi masalasi

O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab olgan mustaqil davlat sifatida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Ushbu yutuqlarning asosini mamlakat uzoq istiqbolini ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar Vatanimizni ravnaq toptirishga, xalqimizning farovonligini yanada oshirishga, tinchlik va osoyishtalikni, ayniqsa qonun ustuvorligi hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatni yanada modernizatsiyalash va demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni obyektiv ijtimoiy zaruratga aylantirmoqda. Ushbu zaruratni amalga oshirish maqsadida 2017 yilning 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni qabul qilindi. Unda davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish, mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bilan bog'liq jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Unga ko'ra, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta:

- 1) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish;
- 2) qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

4) ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5) xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi.

Ayniqsa, bugungi kunda qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini yanada isloh qilish davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Harakatlar strategiyasida mazkur sohada sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash masalalari ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash kerakki, sudyalar mustaqilligi, ularning faqat qonunga bo'ysunishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida ham belgilab qo'yilgan. Demak, asosiy qonunimizda e'tirof etilgan ushbu normaning amalda ta'minlanishining o'zi ham qonun ustuvorligi prinsipi-ning asosidir. Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (2016-yil 21-oktabr) e'lon qilingan edi. Bu esa mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilib, *sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash; fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish; odil sudlovga erishish darajasini oshirish* kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi. Shuningdek, farmonda 2017 yilning 1 apreldan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlarini qo'llashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatilishi, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirilishi; pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksgumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi; sudlarga qamoqqa

olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqi berilishi; tergovning to‘liq emasligini sud muhokamasi jarayonida to‘ldirish mexanizmlarini joriy etish orqali sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergov yuritishga qaytarish instituti bekor qilinishi; fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi; viloyat darajasidagi sudlar tomonidan jinoyat va fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish instituti tugatilib, tegishli sud raislari va prokurorlarning nazorat tartibida protest keltirish bo‘yicha vakolatlari bekor qilinishi kabi masalalar belgilab berildi. Albatta, mazkur vazifalarning ijrosini ta‘minlash amalda sudlar mustaqilligini ta‘minlash bilan birga, fuqaroning haq-huquqlarini, ularning qonuniy manfaatlarini so‘zsiz bajari-lishiga olib keladi. Birgina, qamoq tarzidagi jinoiy jazo turi tugatilib, uning o‘rniga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoning muqobil turlarini qo‘llash amaliyoti jinoiy jazolar tizimidan nisbatan qattiq ta‘sir choralaridan biri chiqarilayotganligi anglatadi. Ushbu amaliyotni mamlakatimizda jinoiy jazolarni liberallashtirishga, huquqbuzarlarga nisbatan tarbiyaviy-tuzatish ta‘sir choralarining ilg‘or shakl va uslublarini keng qo‘llash bo‘yicha olib borilayotgan siyosatning mantiqiy davomi deb hisoblasak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash, sudlarning mustaqilligini amalda ro‘yobga chiqarish, «Xabeas korpus» institutining qo‘llanilishini yanada kengaytirish borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ma‘lumki, 2008-yil 1-yanvardan boshlab prokuraturaning fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilgan edi. Ushbu amaliyot doirasi yanada kengaytirilib, endilikda prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va eksqumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sanksiya berish bo‘yicha vakolatlari sudlarga o‘tkazilmoqda. Bu o‘zgartishlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsip va normalariga to‘la mos kelib, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari daxlsizligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligini anglatadi hamda jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipini ta‘minlab beradi.

Ma‘lumki, mamlakatimizda sud-huquq sohasiga jiddiy e‘tibor qarati- lib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sud-huquq sohasida ijobiy ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, hali ham mazkur sohada yechimini kutayotgan bir qator muammolar, kamchilik va e‘tirozlar yuzaga kelmoq- da. Jumladan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash

tartibini yanada takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudining mavjudligi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanishiga, yagona sud amaliyoti ta‘minlanmasligiga olib kelayotganligi, Harbiy sud sudyalarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiritilganligi, adliya organlari tomonidan umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash tartibi sud hokimiyatining mustaqilligi tamoyiliga muvofiq kelmayotganligi, sudlar tizimining amaldagi tuzilmasi va shtat birligi xizmat vazifalarini oqilona taqsimlash imkonini bermayotganligi sohada islohotlarni yanada jadallashtirishni, ularni zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish va maqbul-lashtirishni, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinlik-lari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta‘minlash, ma‘muriy sud ish yurituvini amalga oshirish bo‘yicha konstitutsiyaviy norma-ni, shuningdek aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarurati ma‘muriy sudlar tizimini tashkil etishni talab etmoqda.

Sohada yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olish, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish maqsadida 2017 yilning 21 fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Sud hoki-miyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudlar faoliyati samarador-ligi va nufuzini oshirish, sudlar tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsa-dida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning o‘rniga Sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadigan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Kengashga sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, malakali va mas‘uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, shuningdek rahbar sudyalik lavozimlariga ko‘rsatish uchun tavsiya berish yo‘li bilan sudyalar korpusini shakllanti-rish; sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish; sudyalarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirishni tash-kil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek sudya-larni rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish; ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo‘lga

qo'yish, sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish; sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash; sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish, shuningdek ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortishga xulosa berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish asosiy vazifalari etib belgilandi.

Ta'kidlash zarurki, farmonda nazarda tutilgan talablarni amalga oshirish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Xo'jalik-protsessual, Fuqarolik-protsessual kodekslariga, «Sudlar to'g'risida»gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga olib keladi. Bu esa, *birinchidan*, sudlar tomonidan fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishda demokratiyaning umume'tirof etilgan tamoyillari va xalqaro huquq normalarining amal qilishini kafolatlaydi; *ikkinchidan*, sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini yuzaga keltiradi; *uchinchidan*, sudni jinoiy ta'qib ishtirokchisi emas, balki uning maqsad va vazifasi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirishini ta'minlaydi.

Harakatlar strategiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik, rasmiyatchilik va befarq munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish bu borada kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi. Ma'lumki, 2014 yil 3 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish, tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi, taklif davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi (qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno). Bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinishi belgilangan. Bu ham fuqaroning huquqini ta'minlashga, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishga olib keladi.

Bugungi kunda jamiyatda qonun ustuvorligi va qonuniylik prinsiplari samaradorligiga bir qancha omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shulardan biri qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi va aholiga ularning mazmun-mohiyatini tushuntirmaslik holatidir. Shu sababli ham aholi orasida qabul qilingan qonunlarni targ'ib-tashviq qilish, ularning mazmun-mohiyatini batafsil yetkazish o'zining ijobiy natijasini beradi.

Ma'lumki, hozirda birinchidan, qonun hujjatlarini tarqatishning yaxlit tizimi shakllanmagan, normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, rasmiy tarqatmalarni ijrochilarga yetkazishning, tushuntirish ishlarini olib borishning tartibi va muddatlari hamda bu sohadagi nazorat o'rnatilmagan; ikkinchidan, fuqarolarni huquqiy xabardor qilish, asosan, an'anaviy ommaviy axborot vositalari orqali qog'oz ko'rinishida amalga oshirilmoqda, bu esa huquqiy axborotning to'liqligi va erkin foydalanilishiga, uning o'z vaqtida tarqatilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda aholining ijtimoiy faol qatlamlari, ayniqsa tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyoj va so'rovlari inobatga olinmayapti. Shu sababli ham, bu borada qonun hujjatlarining so'zsiz va o'z vaqtida bajarilishining samarali mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi «Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ham aynan shu masalaga bag'ishlangan. Ijrochilarga qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z vaqtida yetkazishni ta'minlash, ularning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish ham mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga, uni so'zsiz ijro etilishiga sabab bo'ladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida ham qonuniylik, huquq-tartibot va qonunning ustuvorligi prinsipini amal qilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, ichki ishlar organlari qonun posbonidirlar. Ular tomonidan qonunlarga amal qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish birinchi navbatdagi vazifalaridandir. Harakatlar strategiyasining «Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish» deb nomlangan bandida ham bir qator amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish; aholining

huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish shular jumlasidandir.

Bu borada 2014-yil 14-mayda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida», 2017-yil 3-yanvarda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunlar jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgandir.

Umuman olganda, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayonida ichki ishlar organlarida faoliyat yurituvchi xodimlarning o‘rni beqiyos. Hayot ularga qo‘yiladigan talablarni, ya’ni qonunga itoatkorlikni uzluksiz oshirib bormoqda. Bu talablar jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida tobora ko‘paymoqda. Chunki ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalar kundan-kunga murakkablashib, ko‘p qirrali va mas’uliyatli bo‘lib bormoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat yuzasidan turli hayotiy vaziyatlarga duch keladilar, turfa insonlar bilan muloqotga kirishadilar. Bu esa ulardan yuksak darajadagi madaniyat, keng dunyoqarash va zarur bilimlarga ega bo‘lish hamda xushmuomalalikni talab etadi. Ichki ishlar organlari xodimlari huquqbuzarliklarga qarshi kurashning oldingi saflarida bo‘lib, axloqan benuqsonligi va shaxsiy kamtarligi bilan ajralib turishlari kerak. Ularning kasbiy va shaxsiy xislatlariga qo‘yiladigan talablar majmui ular faoliyatidagi mazkur xususiyatlar bilan bog‘liq. Shuningdek, bugun ichki ishlar organlari xodimlari aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish borasida ham targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Zero, «qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi»¹.

¹ *Мирзиёев Ш. М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, jamiyatda qonun ustuvorligi – qonunlarning barcha tomonidan hurmat qilinishi, ijro etilishi va qat'iy amal qilinishi bilan belgilanadi. Bu huquqiy demokratik davlatga xos bo'lib, jamiyatning barcha sohalarida inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Qonunlarga itoat etish, rioya qilish va ularning ijrosi eng avvalo, jamiyatda adolatni ta'minlaydi. Aksincha, adolatsizlik ildiz otgan joyda taraqqiyot va barqarorlikka putur yetadi. Qonunga itoatkorlik jamiyat a'zolarining yuksak siyosiy-huquqiy madaniyatidan kelib chiqadi. Ya'ni uning negizini qonunning maqsad va vazifalari, mohiyatini ongli ravishda tushunib olish, unga o'z ixtiyori bilan rioya qilish tashkil etadi.

Qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligi prinsiplari – demokratiyaning asosiy talablaridandir. Mazkur talablar nuqtai nazaridan qonun ma'naviyat bilan uyg'unlashadi. Zero, inson ma'naviyatining ifodasi bo'lgan insof, o'zgalarga nisbatan hurmat-izzat va halollikka putur yetsa, ya'ni bir odam boshqalarning huquqlarini buzsa, qonun ishga tushadi va kimning haq yoki nohaq ekanligini adolat tarozisida o'lchab beradi.

Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun ularga so'zsiz rioya etish majburiyatga emas, balki ma'naviy fazilatga aylanmog'i lozim. Chunonchi, taraqqiyotning «o'zbek modeli»da ham qonunning axloq va ma'naviyat izmida bo'lishi obyektiv zarurat sifatida e'tirof etiladi. O'z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligining qaror topishi, qonunlarga itoatkorlik oliy qadriyatga aylanishi bir necha omillarga bog'liq. Ulardan eng asosiysi – mukammal va sifatli qonunlarning qabul qilinishidir. Binobarin, jamiyatda demokratik prinsiplar hamda qadriyatlarning qaror topishi bevosita qonun ustuvorligi va unga itoat etish bilan belgilanadi.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	3
1-§. Qonun ustuvorligi va qonunga itoatkorlik tushunchasi	5
2-§. Taraqqiyotning «o‘zbek modeli»da qonun ustuvorligi prinsipining ifodalanishi	13
3-§. Jamiyatni demokratlashtirishda qonun ustuvorligining ahamiyati.....	17
4-§. Siyosiy partiya fraksiyalarining qonun ustuvorligini ta’minlashdagi o‘rni	21
5-§. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligi masalasi.....	30
XULOSA.....	37

BERDIKULOV SIROJJON NASIPKULOVICH

**QONUN USTUVORLIGI VA QONUNGA ITOATKORLIK –
DEMOKRATIK TARAQQIYOT KAFOLATI**
O'QUV QO'LLANMA

Muharrir J.E. Xolov

Texnik muharrir D.R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 12.05.2017. Nashriyot hisob tabag'i 3,0
Adadi 30 nusxa. Buyurtma № Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.